

O‘ZBEKISTONDA NEMIS TILIGA BO‘LGAN E‘TIBOR (Samarqand Davlat chet tillar instituti misolida)

I.M. Tuxtasinov (SamDChTI rektori)

Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega, kelajagi porloq mamlakat sifatida tan olinmoqda. Yurtimiz ravnaqi yo'lida qilinayotgan tub islohotlar haqida gap borar ekan, bu o'rinda bizga har tomonlama beg'araz yordam berayotgan xorijiy davlatlarning, xususan Germaniya federativ respublikasining xizmatini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil yanvar oyida Germaniya federativ respublikasiga qilgan tashrifi hamda 2022-yil 14-mart kuni Germaniya prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer bilan telefon orqali qilgan muloqoti davomida O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni yanada mustahkamlash va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Prezidentlar o'rtasidagi mazkur muloqotlar jaryonida ta'lim tizimida nemis texnologiyalaridan samarali foydalanish, O'zbekistonda Germaniyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari filiallarini ochish, yurtimizda nemis tili chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar tarmog'ini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Germaniya bilan hamkorlikda olib borilayotgan istiqbolli ishlar Samarqand Davlat chet tillar institutiga ham taaluqlidir. Jumladan, institutimiz Germaniyaning quyidagi ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqlarini o'rnatgan:

1. Humboldt universiteti
2. Heidelberg pedagogika universiteti
3. Frayburg universiteti
4. Mainz universiteti
5. Bochum universiteti
6. Leibniz nemis tili instituti

Institutda nemis tilida dars berayotgan professor-o'qituvchilar hamda nemis tilini o'rganayotgan talabalarining nemis tilini chuqur o'zlashtirishlarida hamda o'z malakalarini xorijda oshirib kelishlarida Gyote instituti, Germaniya Akademik almashuv xizmati (DAAD), Konrad Adenauer nomidagi jamg'arma kabi tashkilotlarning ham hissasi kattadir.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, institutimizda Germaniya firmalari hamda nemis mutaxassislari bilan hamkorlikda ish olib borishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, institutimiz joriy yilning mart oyida Germaniyaning "Simsons Private Academy" firmasi bilan kasbga yo'naltirilgan dual ta'lim borasida memorandum imzoladi. Bu ikki tomonlama shartnomaga asosan, ko'plab talabalarimizning Germaniyada ish bilan ta'minlanishiga zamin yaratildi.

Bugungi kunda ikki nafar Germaniyalik mutaxassis: PHD doktori Manfred Frühauf hamda DAAD lektori Anton Umbax institutimizda faoliyat olib borishayotgani ham ikki tomonlama hamkorlikning yorqin namunasidir.

Samarqand Davlat chet tillar institutining Germaniya oliygohlari bilan hamkorlikda olib borayotgan ishlarida, tabiiyki, institutning Roman-german tillari fakulteti "Nemis tili va adabiyoti kafedrası" jamoasining ham munosib hissasi bor.

Bugungi kunda kafedrada professor A.M.Bushuy asos solgan “Tilning sistem-strukturaviy va nominativ-kommunikativ tarzda namoyon bo‘lishi” nomli ilmiy maktab, professor B.T.Tursunov boshlab bergan “Matnning lingvistik tahlili” ilmiy maktabi, shuningdek, professorlar: B.X.Rizaev, A.A.Yaxshiyev, M.B.Begmatov, P.J.Nazarovlar rahbarligi ostida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tahsinga sazovordir.

Kafedra mutaxassislari nemis tili yo‘nalishi bo‘yicha har yili eng iqtidorli talabalarni turli konkurs va olimpiadalarga tayyorlashadi. Masalan, 2019-yilda bo‘lib o‘tgan Respublika chet tili olimpiadasida nemis yo‘nalishi talabasi Viktor Sundeyev faxrli 2 o‘rinni, 2021-yil esa mutloq g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. O‘tgan yili Roman-german tillari fakulteti nemis tili yo‘nalishi talabalaridan Rasulova Hilola va Abrorqulov Abror “Erasmus+” dasturining xalqaro kredit modulligi loyihasida ishtirok etib, joriy o‘quv yilida Germaniyaning Myunchen universitetida tahsil olish baxtiga muvassar bo‘lishdi.

Hozirgi davr talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda “Nemis tili va adabiyoti” kafedrası “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari”, “Nemis tili o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish” mavzulari ostida Germaniya, Avstriya va Shvetsariyalik olimlar bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishmoqda. Shuningdek, “Nemis tili va adabiyoti” kafedrası tomonidan bir necha yildan beri o‘tkazilib kelinayotgan va allaqachon an‘anaga aylangan “Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajriba, istiqbolli izlanishlar va tillarni o‘qitishning innovatsion usullari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida ham nemis tilshunosligi va nemis tili o‘qitish metodikasi bilan shug‘ullanib kelayotgan mahalliy professor-o‘qituvchilar bilan bir qatorda ko‘plab xorijlik mutaxassislar, xususan Germaniya, Avstriya, Shvetsariya mamlakatlarining nufuzli universitetlarida faoliyat ko‘rsatuvchi olimlar ham o‘z ma‘ruzalari bilan muntazam qatnashib kelishayotgani ham e‘tiborga molikdir.

Mazkur anjumaning bu yilgi yig‘ilishi oldidan Gyote Institut va DAAD tashkilotlari hamkorligida Samarqand Davlat chet tillar institutida respublika nemis tili o‘qituvchilarining mobil anjumani bo‘lib o‘tganligini hamda SamDChTI “Nemis tili va adabiyoti” kafedrası professorlari M.B.Begmatov va P.J.Nazarovlar tomonidan “Samarqand nemis tilshunosligi maktabi” nomli ilmiy-ommabob risolaning nashr etilishini to‘yga to‘yona sifatida baholashimiz mumkin.

Ishonch bilan ta’kidlab o‘ta olamizki, Samarqand Davlat chet tillar institutining nemis tilida gaplashuvchi mamlakatlar, xususan Germaniya federativ respublikasi bilan ta’lim sohasida bo‘lgan ilmiy-pedagogik aloqalari yanada kuchayadi.